

«UzAuto Motors» AJ
XARID XUJJATLARI



22ZD-1302-00039

2022-02-25

Yuboruvchi:

Kommunal xizmat ko'rsatish va kapital qurilish direksiyasi

RAXMONOV RAXMIDIN SULTONOVICH

Direktor

Qabul qiluvchi:

«UzAuto Motors» AJ

Andersson Bo Inge

Korxonada bosh direktori

Eng yaxshi taklifni tanlash summasi. 25000 BRV gacha (Kommunal xizmat)

Asaka tumani «UzAuto Motors» AJ xududida logistika bo'limi KK-41K
rusumli yuk ko'tarish kranini va yo'lagini xamda KKC-12,5 + 12,5 rusumli
yuk ko'tarish kranini joriy ta'mirlashga loyixa-smeta xujjatlarini ishlab
chiqish va ekspertiza ijobiy xulosasini olish

TANLOV XUJJATLARI

Buyurtmachi: «UzAuto Motors» AJ

Asaka – 2022 y.

MUNDARIJA

1. Tanlov ishtirokchilariga ko'rsatmalar.
2. Tanlovning texnik qismi.
3. Tanlovning narx qismi.

TANLOV ISHTIROKCHILARIGA KO'RSATMALAR

1	Umumiy tartib	1.1	Mazkur tanlov xujjatlari O'zbekiston Respublikasi quyidagi qonun talablariga muvofiq ishlab chiqilgan. O'RQ-684 sonli «Davlat xaridlari to'g'risida»gi (keyingi o'rinlarda – «Qonun») qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2022-yil 31-yanvar kungi «Qurilish sohasida elektron davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi №VM-46 sonli (keyingi o'rinlarda – «Qaror») qarori xamda «Xarid qilish tartibtaomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi buyruq (Adliya Vazirligi ro'yxat raqami 26.05.2018 y. kungi №3016 (keyingi o'rinlarda – «Nizom»).
		1.2	Asaka tumani «UzAuto Motors» AJ xududida logistika bo'limi KK-41K rusumli yuk ko'tarish kranini va yo'lagini xamda KKC-12,5 + 12,5 rusumli yuk ko'tarish kranini joriy ta'mirlashga loyixa-smeta xujjatlarini ishlab chiqish va ekspertiza ijobiy xulosasini olish
		1.3	Asos: Xizmat xati №21AXX-4411-0259 29.09.2021y.
		1.4	Tanlovning minimal qiymati va valyutasi tanlov xujjatlarining narx qismida ko'rsatilgan.
		1.5	Sotib olinadigan tovar (xizmat, ish) uchun texnik topshiriqlar tanlov xujjatlarining texnik qismida elektron ko'rinishda ko'rsatilgan.
		1.6	Tanlov komissiyasining takliflarni ko'rib chiqish shakli - elektron xolda

2	Tanlov Tashkilotchisi	2.1	Tanlov buyurtmachisi «UzAuto Motors» (keyingi o'rinlarda - «buyurtmachi»). Yuridik manzili: O'zbekiston Respublikasi, 170200, Asaka shahri, Xumo ko'chasi 81 «Buyurtmachi» Rekvizitlari: MFO 00073, STIR 200244767 x/r 2021 4000 8005 3230 5001 «Asaka» ATB Asaka filiali
		2.2	Buyurtmachi bilan bog'lanish : Kapital qurilish bo'limi boshlig'i Dadajonov R., Kapital qurilish bo'limi menedjeri Soliev J., tanlov komissiya kotibi iqtisodchi Abdullaev Sh. email: ravshan.dadajonov@uzautomotors.com jahongir.soliyev@uzautomotors.com Shuhratbek.Abdullaev@uzautomotors.com tel. 99878-1502200 (ichki raqam. 41-80, 41-96, 41-94)
		2.3	Tanlov komissiyasi ishchi organi «UzAuto Motors» AJ Kapital qurilish bo'limi xisoblanadi (keyingi o'rinlarda - «Ishchi organ»).
		2.4	Shartnoma egasi: AO «UzAuto Motors»
		2.5	Tanlov xujjatlari qonun xujjatlari asosida shakllangan 5 kishilik komissiya a'zolari tomonidan baxolanadi.
3	Tanlov qatnashchilari	3.1	Tanlovda O'zbekiston Respublikasi rezident va norezidentlari qatnashish xuquqiga ega. Tanlov xujjatining 4.2 bandida sanab o'tilgan talablar budan mustasno.
4	Tanlov o'tkazish tartibi	4.1	Tanlovda qatnashish uchun tanlov qatnashchilari: a) Tanlov shartlari bilan tanishish uchun maxsus axborot portalida joylashtirilgan tanlov xujjatlarining elektron nusxasini olish (yuklab olish) va o'rganib chiqish; b) Ushbu yo'riqnomaning talablariga muvofiq malaka xujjatlari va tanlov taklifini taqdim etishi kerak; B) O'z taklifini, uning amal qilish muddati davomida kafolatini ta'minlash bo'yicha kafolat xati berishi kerak.
		4.2	Tanlovda qatnashish uchun quyidagi qatnashchilarga ruxsat etilmaydi:

			Qayta tashkil etilayotgan, tugatish va bankrotlik xolatlarida turgan tashkilotlar;
			Buyurtmachilar bilan sudlashish jarayonida yoki arbitraj sudida muxokamada bo'lgan qatnashchilar;
			Insofsiz ijrochilarning yagona ro'yxatida turuvchi qatnashchilar;
			Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorligi mavjudlar;
			O'zaro affillangan qatnashchilarni bir lotda qatnashishiga
			imtiyozli soliq rejimini ta'minlaydigan va /yoki moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda ma'lumotni oshkor qilish va taqdim etishni nazarda tutmagan shtatlar yoki hududlarda ro'yxatdan o'tgan va bank hisob raqamlari bo'lgan (offshor hududlar);
		4.3	Buyurtmachi quyidagi holatlarda ishtirokchini tanlovda qatnashishni diskvalifikatsiya qilish huquqiga ega:
			Tanlovda affillangan xolati aniqlangan taqdirda
			ishtirokchi tanlov jarayonida qaror qabul qilish uchun yoki boshqa xarakatlar uchun to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita xaridorning har qanday amaldagi yoki sobiq mansabdor shaxsiga, yoki xodimiga, yoki boshqa davlat organiga har qanday shaklda, qimmatbaho narsa, yoki xizmat taklif qilsa;
			ishtirokchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini buzgan holda adolatsiz raqobat ustunligiga yoki manfaatlar to'qnashuviga ega.

5	Tanlov tili, o'lchov birligi.	5.1	Tanlov taklifi va ishtirokchi bilan buyurtmachi o'rtasida amalga oshiriladigan barcha tegishli yozishmalar (hujjatlar) o'zbek tilida bo'lishi kerak. Tanlov taklifi boshqa tilda bo'lishi mumkin, agar u o'zbek tiliga to'g'ri tarjima qilingan bo'lsa. Tanlov taklifi matnida nomuvofiqliklar aniqlangan taqdirda, bir nechta til ishlatilganda, o'zbek tili ustun deb hisoblanadi. Texnik hujjatlarni ingliz tilida taqdim etishga ruxsat beriladi.
			Taklif umumiy qabul qilingan o'lchov tizimidan foydalanishi kerak.
6	Tanlov taklifi va uni rasmiylashtirish tartibi	6.1	Portalda e'lon qilingan tanlov ishtirokchilari taklifni belgilangan tartibda http://etender.uzex.uz saytiga joylaydi.
		6.2	Tanlov ishtirokchisi:
			Yakka tartibdagi tadbirkor yoki rezident faqatgina electron raqamli imzodan (ERI) foydalanib ro'yhatdan o'tishi mumkin bo'ladi.
			taqdim etilgan ma'lumotlar va hujjatlarning haqiqiyli va ishonchliligi uchun javobgardir;
			faqat bitta taklif kiritish huquqiga ega;
			takliflarni taqdim etish muddati tugagunga qadar taqdim etilgan taklifni qaytarib olish huquqiga ega.
		6.3	Taklif ikki qismdan iborat: Texnik qism. Buyurtmachining texnik talablariga javob berishi va taklif qilinayotgan mahsulotning batafsil tavsifini o'z ichiga olishi kerak; Narx qismi. Tanlov shartlariga mos kelishi va tanlov taklifining narx qismidagi talablarda ko'rsatilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak (shu jumladan mahsulot nomi, birlik narxi, barcha soliqlarni o'z ichiga olgan umumiy qiymati, to'lov shartlari, taklifning haqiqiyli va boshqalar).

			Tanlov takliflari www.etender.uzex.uz portalda e'lon qilingan kundan boshlab eng kamida 5 kunda www.etender.uzex.uz saytiga joylanadi.
		6.4	Tanlov bo'yicha takliflar komiissiya a'zolari tomonida elektron ko'rinishda www.etender.uzex.uz saytida ko'rib chiqiladi.
		6.5	Tanlov ishtirokchilarining takliflarini amal qilish muddati takliflar tugagan kundan boshlab kamida 60 kun bo'lishi kerak.
7	Takliflarni berish muddatlarini uzaytirish	7.1	Buyurtmachi tanlov takliflarini qabul qilish muddatlarini uzaytirishi mumkin emas, faqatgina tanlovni qayta e'lon qilishi mumkin.
		7.2	Tanlovlarni qayta e'loni axborot portalida joylashtiriladi va agar kerak bo'lsa, xaridor veb-saytida yoki boshqa ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.
8	Tanlov hujjatlariga kiritiladigan o'zgarishlar	8.1	Zarur bo'lganda, buyurtmachi tender hujjatlariga o'zgartirish kiritish to'g'risida qaror qabul qilish huquqiga ega. Tanlov hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qaror takliflarni taqdim etish muddati tugashidan uch kundan kechiktirmay qabul qilinishi mumkin.
			Tanlov hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish jarayonida mahsulot (ish, xizmat) yoki ularning xususiyatlarini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. Agar tanlov hujjatlariga takliflarni taqdim etish muddati tugagunga qadar o'zgartirishlar kiritilgan bo'lsa, tanlov hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilgan kundan boshlab kamida o'n kunga uzaytiriladi. Shu bilan birga, agar e'londa ko'rsatilgan ma'lumotlar o'zgartirilgan bo'lsa, tanlov e'loniga o'zgartirishlar kiritiladi.

9	Tanlov takliflarini ko'rib chiqish tartibi, ularni baholash tartibi va mezonlari	9.1	Buyurtmachi komissiya a'zolari ro'yxatini shakllantirishdan avval, har bir komissiya a'zosi haqida ma'lumot kiritib chiqish bilan birga unga shaxsiy kabinet yaratadi. Buning uchun buyurtmachi shaxsiy kabinetning "Komissiya" bo'limiga kirib "Qo'shish" tugmasini bosadi.
			Komissiyaning har bir a'zosi uchun shaxsiy kabinet yaratilgandan so'ng, har bir a'zo ro'yxatdan o'tkazish jarayonida ko'rsatilgan elektron pochtaga tizim shaxsiy kabinetni faollashtirish uchun havola yuboradi. Shaxsiy kabinetga birinchi marotaba kirilayotganda xarid komissiyasining har bir a'zosi, shu jumladan uning raisi ishtirokchilar bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalari mavjudligi to'g'risida ma'lumotlarni kiritishi shart.
		9.2	<p>- Ball usuli – tanlov taklifining texnika va kvalifikatsion hamda narh qismlarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori ball to'plagan ishtirokchini g'olib sifatida aniqlaydi.</p> <p>- Eng past narx usuli – tanlov takliflarining texnik qismini baholash natijalariga ko'ra elektron tanlovda ishtirok etishni davom ettirishga ruxsat berilgan ishtirokchilar orasidan eng past narhni taklif etgan ishtirokchini</p>
		9.3	Tanlov komissiyasi tanlov g'olibini aniqlash bo'yicha rad etilmagan takliflarni tanlov hujjatlarida ko'rsatilgan mezonlar asosida baholaydi.
		9.4	Agar tanlov ishtirokchilari takliflarni turli xil valyutalarda taqdim etsa, taxlil paytida taqdim etilgan takliflar miqdori O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha yagona valyutada xisob-kitob qilinadi.

			Tanlov takliflarini baholash jarayonida tanlov komissiyasining ishchi organi ishtirokchilarga taklifda ko'rsatilgan har qanday ma'lumotni tasdiqlash yoki aniqlashtirish to'g'risida yozma so'rov yuborish huquqiga ega. Bunday so'rovlarni olgandan so'ng, ishtirokchilar ishchi organga yozma ravishda javob berishlari va so'ralgan ma'lumotlarni taqdim etishlari kerak. Bunday yozishmalar jarayonida taklifning texnik qismiga biron bir o'zgartirish kiritishga yo'l qo'yilmaydi
		9.5	Tanlov hujjatlari muvafaqqiyatli joylashtirilgandan so'ng, moderatsiyaga yuboriladi. Tanlov hujjatlari moderatsiyadan muvafaqqiyatli o'tgandan so'ng tizim tanlov hujjatini avtomatik tarzda komissiya a'zolariga yuboradi.
		9.6	Tanlov hujjatlari komissiya a'zolari tomonida ko'p ovoz yig'ish yo'li bilan tasdiqlanadi. Kommissiya a'zolarining kotibidan tashqari har biri bir marotabadan ovoz berish huquqiga ega.
		9.7	Agar komissiya a'zolarida tanlov hujjatlari bo'yicha savollar yuzaga kelsa harid komissiyasining a'zolari va ma'sul kotibi o'zaro chat orqali muloqot qilishlari mumkin bo'ladi.
		9.8	Tanlov hujjatlarida va taklifda ko'rsatilgan mezonlar asosida shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlarini taklif qilgan tanlov ishtirokchisi g'olib deb topiladi
		9.9	Tanlov ishtirokchisi taqdim etgan hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlar ishonchli bo'lmaganligi aniqlangan taqdirda, tanlov komissiyasi bunday ishtirokchini tanlovda qatnashishdan chetlatishga haqli.
		9.10	Agar arifmetik yoki boshqa xatolar mavjud bo'lsa, xarid komissiyasi tanlov taklifini rad etishga haqli
		9.11	Taklif, agar u qonun talablari, me'yoriy huquqiy hujjatlar va tanlov hujjatlari talablariga javob bersa, to'g'ri bajarilgan deb topiladi.

		9.12	Ishchi organ, agar uni topshirgan ishtirokchi Qonunda va Qarorlarda belgilangan talablarga javob bermasa yoki tanlov ishtirokchisining taklifi tanlov hujjatlari talablariga javob bermasa, taklifni rad etadi.
		9.13	Tanlov takliflarini baholash jarayonida ishchi organ ishtirokchilardan o'z takliflari to'g'risida tushuntirishlar so'rashi mumkin. Bu tartib rasmiy tarzda, yozma ravishda belgilangan tartibda tanlov tashkilotchisi orqali amalga oshiriladi. Tushuntirish jarayonida taklifning mohiyatini, shuningdek narxini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.
		9.14	Tanlov shartlarida narxlarni turli valyutalarda taqdim etish ko'zda tutilgan hollarda, chet el va mahalliy ishtirokchilarning narxlarini to'g'ri solishtirish, chet el valyutasidagi takliflarni to'g'ri baholash uchun, taklifni taqdim etgan ishtirokchi chet el valyutasida sotilgan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) solinadigan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan barcha turdagi soliqlar, yig'imlar, majburiy to'lovlarning amaldagi stavkalari va foizlari ko'rsatilishi shart.
		9.15	Takliflarni ko'rib chiqish va baholash natijalari takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasida qayd etiladi.
		9.16	Agar komissiya a'zolarida tanlov hujjati bo'yicha e'tirozlar mavjud bo'lsa, buyurtmachida tanlov hujjatlari bir ovozdan tasdiqlanmaganligi haqida ma'lumot aks etadi, buyurtmachi kerakli, buyurtmachi kerakli ma'lumotlarni o'zgartirib, qayta moderatsiyaga jo'natadi, tanlov hujjati moderatsiyadan muvaffaqiyatli o'tkandan so'ng tizim avtomatik tarzda ularni komissiyaga ko'rib chiqish uchun yuboradi. Komissiya a'zolari tanlov hujjatlarini qaytadan ko'rib chiqadilar. Tanlov hujjatlari komissiya tomonidan bir ovozdan ma'qullangandan so'ng, komissiya kotibi yoki raisi buyurtmachiga yuboradi.

		9.17	<p>Tanlov shartlarida narxlarni turli valyutalarda taqdim etish nazarda tutilgan xollarda, chet ellik va maxalliy ishtirokchilarning narxlarini to'g'ri taqqoslash, chet el valyutasidagi takliflarni to'g'ri baxolash uchun chet el valyutasida taklif bergan ishtirokchi chet el valyutasida sotiladigan tovar (ish, xizmat) larga solinadigan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan amaldagi barcha turdagi soliqlar, yig'imlar, majburiy to'lovlarning joriy stavkalari va foizlarini ko'rsatishi shart. Ishtirokchi ushbu masala bo'yicha berilgan ma'lumotlarning to'g'riligi va to'liqligi uchun javobgardir.</p>
		9.18	<p>-Komissiya a'zolari tomonidan tasdiqlangan tanlov hujjati komissiya kotibi yoki raisi tomonidan buyurtmachiga yuboriladi.</p>
		9.19	<p>Harid protsedurasi natijalariga ko'ra, alohida har bir mahsulot (ish, xizmat) bo'yicha bir nechta g'oliblar yoki umumiy natija orqali aniqlanishi mumkin.</p>
		9.20	<p>Ishtirokchilar tomonidan kelib tushgan takliflar tanlov o'tkazish bo'yicha e'londa ko'rsatilgan talablar asosida tanlov taklifining texnik qismini miqdoriy ko'rsatkichlarini va narx qismini baholash elektron tizim tomonidan avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Taklifning texnik qismining miqdor ko'rsatkichlarga ega bo'lmagan mezonlarini (ekspert mezonlari) baholash va taqqoslash xarid komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.</p>
		9.21	<p>Tanlov hujjatlarida belgilangan shartlardan kelib chiqib elektron tizim avtomatik ravishda:</p> <ul style="list-style-type: none"> - tanlov taklifining texnik va narx qismlarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori ball to'plagan ishtirokchini (ball usulidan foydalanganda) - tanlov takliflarining texnik qismini baholash natijalariga ko'ra elektron tanlovda ishtirok etishni davom ettirishga ruxsat berilgan ishtirokchilar orasidan eng past narxni taklif etgan ishtirokchini (eng past narx usulidan foydalanganda) g'olib sifatida aniqlaydi.

10	Tomonlarning javobgarligi va maxfiylik bajarilishi	10.1	O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan maxfiylikka rioya qilish uchun quyidagilarga javobgarlik yuklatilgan: ishchi organi tarkibiga kiruvchi, kiruvchi takliflar hisobini yuritadigan, ularning xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlaydigan shaxslar;
			- komissiya raisi va a'zolari, shuningdek takliflarni o'rganish uchun tuzilgan ishchi guruh a'zolari, ishtirokchilar, komissiyaning boshqa a'zolari va jalb qilingan ekspertlar bilan til biriktirish, axborotni oshkor qilish, shuningdek boshqa noqonuniy xatti-harakatlar uchun tashkil qilingan ishchi gurux a'zolari.
			- barcha maxfiy texnik ma'lumot (chizmalar, standartlar va x.k) buyurtmachining tijorat siri bo'lib uni oshkor qilmaslik to'g'risida kelishuv tuzish orqali ishtirokchilarga taqdim etiladi.
			Tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar, Ishtirokchi tomonidan oshkor qilingan xolatda, va bu xolat Buyurtmachiga zarar keltirsa, Buyurmachi ushbu zarar miqdorini to'laligicha qoplab berilishini Ishtirokchidan talab qilish xuquqiga ega va o'z navbatida Ishtirokchi zarar miqdorini, yo'qotilgan foyda miqdorini xisobga olgan xolda, Buyurtmachiga to'laligicha qoplab berishi shart.

			Ishtirokchi, tijorat siri bo'lgan texnik ma'lumotlarni oshkor qilinishi, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, fuqorolik, ma'muriy va jinoiy javobgarlikka olib kelishi xaqida ogohlantirilganligini tasdiqlaydi
		10.2	Shartnoma bo'yicha majburiyatlari (miqdor, sifat va boshqa texnik parametrlar bo'yicha) ni bajarmagan tanlov g'olibi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va/yoki imzolangan shartnomaga muvofiq javobgarlikka tortiladi.
11	Boshqa talablar	11.1	Agar tanlov ilgari O'zbekiston Respublikasiga yetkazib berilmagan zavod mahsulotlarini taklif qilsa, tanlov komissiyasi tanlov ishtirokchisidan ushbu mahsulotlar haqida uchinchi shaxslardan fikr-mulohaza bildirishni so'rashga haqli.
		11.2	Tanlovda qatnashish istagini bildirgan ishtirokchilar, o'tkazilayotgan tanlov haqida tushuntirish berish uchun ishchi organga murojaat qilish huquqiga ega.
		11.3	- Elektron tanlov ishtirokchisida tanlov hujjatlari bo'yicha savollar yuzaga keladigan bo'lsa buyurtmachiga ochiq elektron chat orqali tanlov takliflarini berish muddati tugaydigan sanadan kamida ikki kun oldin murojaat qilishi mumkin bo'ladi. -Buyurtmachi so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran ikki kun ichida ushbu so'rovga ochiq elektron chat orqali tushuntirish yuborishi shart.
		11.4	Quyidagi hollarda tanlov komissiyasi tomonidan tanlov o'tkazilmagan deb e'lon qilinishi mumkin: - tanlovda bitta ishtirokchi qatnashsa yoki hech kim qatnashmasa; - takliflarni ko'rib chiqish natijasiga ko'ra tanlov komissiyasi xamma takliflarni tanlov xujjatlari talablariga mos kelmaganini nazarda tutgan xolda rad etgan bo'lsa.

		11.5	Buyurtmachi g'olib bo'lgan taklif qabul qilinishidan oldin istalgan vaqtda tanlovni bekor qilishga haqli. Tanlov bekor qilingan taqdirda, buyurtmachi ushbu qarorning asosli sabablarini maxsus axborot portalida e'lon qiladi.
12	Shartnomani rasmiylashtirish	12.1	Tanlov natijalariga ko'ra, shartnoma tanlov hujjatlarida va shartnoma tuzilgan tanlov ishtirokchisi tomonidan berilgan shartlarda tuziladi.
		12.2	Tanlov o'tkazish bo'yicha e'lon joylashtirilgandan so'ng kamida 5(besh) ish kun savdoda faol turadi, shu fursat ichida ishtirokchilar o'z takliflarini elektron tarzda berishlari mumkin bo'ladi. Shundan so'ng, avtomatik ravishda, eng yaxshi taklifni tanlash bayonnomasi chiqadi, so'ng bayonnomani 2 (ikki) kun ichida komissiya a'zolari g'olibni tasdiqlab beradilar va tomonlar o'rtasida shartnoma tuziladi.
		12.3	Agar tanlov g'olibi tanlov shartlari to'g'risida shartnoma tuzishdan bosh tortsa, shartnoma tuzish huquqi zaxira pudratchiga o'tadi. Bunda zaxira pudratchi tanlov g'olibi taklif qilgan narx bo'yicha shartnoma tuzishi yoki shartnoma tuzishdan bosh tortishi mumkin.

2. TEXNIK QISM

Asaka tumani «UzAuto Motors» AJ xududida logistika bo'limi KK-41K rusumli yuk ko'tarish kranini va yo'lagini xamda KKC-12,5 + 12,5 rusumli yuk ko'tarish kranini joriy ta'mirlashga loyixa-smeta xujjatlarini ishlab chiqish va ekspertiza ijobiy xulosasini olish

Taqdim etilgan tovarlarning miqdori va hajmi (xizmatlar, ishlar hajmi) va ular uchun xarakteristikalar (talablar).

Xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish) "Texnik topshiriq" tanlov hujjatlari (bundan buyon matnda - TT) Texnik qismining 1-ilovasida ko'rsatilgan talablarga muvofiq ishtirokchi tomonidan amalga oshirilishi kerak.

Har bir ob'ekt bo'yicha xizmatlar (ishlar) natijalarini yetkazib berish uchun TT 2-ilovaga muvofiq hujjatlar to'plami tuzilishi kerak.

Tovarlarni yetkazib berish, ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish muddati (yoki jadvali).

Ish muddati shartnoma bo'yicha oldindan to'lov to'langan to'langan **kundan boshlab 20 ish kuni.**

Texnik qismga 1-sonli ilova: Texnik topshiriq (TT)

Texnik qismga 2-sonli ilova: Xizmatlar (ishlar) uchun hujjatlar ro'yxati

3.NARXLAR QISMI

Ishtirokchi taklifda QQSni hisobga olgan xolda hamda, QQSni hisobga olmagan xolatda ham narxlarni ko'rsatishi shart.

Narxlar taklifi elektron shaklda etender.uzex.uz sayti orqali taqdim etiladi.

Ishtirokchi tovarlar (xizmatlar, ishlar) birligining narxini ko'rsatishga majburdir.

Agar xaridor narxlar jadvalining batafsil shaklini taqdim etsa, ishtirokchi to'ldirilgan jadvalni elektron shaklda taqdim etishga majbur bo'ladi. Barcha boshlang'ich narxlar formulalari kuzatilishi kerak va narxning tarkibiy qismlari shaffof va tushunarli bo'lishi kerak. Yashirin formulalar yoki narx komponentlari bo'lmasligi kerak.

Buyurtmachi ishtirokchi tomonidan asosiy narx taklifiga qo'shimcha yoki uning o'rniga taklif qilinadigan muqobil narx takliflarini ko'rib chiqmaslik huquqini o'zida saqlab qoladi.

1	Obyekt nomi	Asaka tumani «UzAuto Motors» AJ xududida logistika bo'limi KK-41K rusumli yuk ko'tarish kranini va yo'lagini xamda KKC-12,5 + 12,5 rusumli yuk ko'tarish kranini joriy ta'mirlashga loyixa-smeta xujjatlarini ishlab chiqish va ekspertiza ijobiy xulosasini olish
---	-------------	--

2	Ishlarni boshlang'ich narxi	12 000 000(o'n ikki milion) so'm
3	Moliyalashtirish manbasi	O'z mablag'lari
4	To'lov shartlari va to'lov tartibi	Oldindan to'lov: 0 % ; Joriy moliyalashtirish: 100 % bajarilgan va topshirilgan ish turlariga nisbatan oldindan to'langan summani ushlab qolgan xolda;
5	To'lov valyutasi	UZS – O'zbekiston Respublikasi valyutasi (so'm)
6	Bajarish davri	Shartnoma imzolangan kundan boshlab 20 ish kuni.
7	Tovar yetkazib berish joyi (ekspert xulosasi bilan loyiha-smeta hujjatlari)	Asaka shahri, Xumo ko'chasi 81
8	Taklifning amal qilish muddati	60 kun

Komissiya raisi

Ishlab chiqarish va texnologiyalarni rivojlantirish bo'yicha boshqaruvchi direktor v.b.

Ishlab chiqarish bo'yicha funktsional guruh



2022-02-25 08:23

I. I. Jo'rayev
2022-02-25 00:04

Komissiya a'zolari

Yuridik bo'lim boshlig'i
Yuridik boshqarma (Asaka sh.)



2022-02-21 18:04

A. A. Mirzabekov
2022-02-21 16:18

Direktor
Kommunal xizmat ko'rsatish va kapital qurilish direksiyasi



2022-02-21 16:29

R. S. RAXMONOV
2022-02-21 16:18

Bosh buxgalter
Buxgalteriya hisobi xizmati



2022-02-25 00:04

A. I. Yakubov
2022-02-21 16:18

Direksiya direktori
*Rejalashtirish va muvofiqlashtirish
direktsiyasi*



2022-02-21 21:50

U. E. Kurbanov
2022-02-21 16:18

Bo'lim ichida rozilik

Bo'lim boshlig'i
Kapital qurilish bo'limi



2022-02-21 16:18

R. K. Dadajanov
2022-02-21 14:14

Mas'ul

Iqtisodchi
Kapital qurilish bo'limi



2022-02-21 14:14

**S. S.
ABDULLAYEV**
2022-02-21 14:14